

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**AROMOV TOLMAS BAXTIYOROVICH**

**HISOR DAVLAT QO‘RIQXONASI FLORASI**

03.00.05 – Botanika

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Aromov Tolmas Baxtiyorovich**

Hisor davlat qo‘riqxonasi florasi..... 5

**Аромов Толмас Бахтиёрович**

Флора Гиссарского государственного заповедника ..... 19

**Aromov Tolmas Bakhtiyorovich**

Flora of the Hisar State Reserve..... 37

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 40

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**AROMOV TOLMAS BAXTIYOROVICH**

**HISOR DAVLAT QO‘RIQXONASI FLORASI**

03.00.05 – Botanika

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B718 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turginov Orzimat Turdimatovich**

biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),  
katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Yoziyev Lutfullo Xabibullaevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Esanov Husniddin Qurbonovich**  
biologiya fanlari doktori


**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2020.B.70.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "28" "12" kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti, Bosh binosi, 205-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (213 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "16" "12" kuni tarqatildi  
(2023-yil "16" "12" dagi № 9 -raqamli reestr bayonnomasi).



**Sh.Q. Qurbonov**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
biologiya fanlari doktori, professor

**Sh.A. Samatova**  
Ilmiy daraja beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**L.H. Yoziyev**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi,  
biologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda aholi sonining o'sishi, insoniyatning texnik va energetik darajasining oshishi, globallashtirish jarayoni ekotizimlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, o'simlik resurslaridan nooqilona foydalanish biologik xilma-xillikka, landshaftlar va biogeotsenozlarni tabiiy holatiga jiddiy zarar yetkazib, alohida o'simlikni tabiatdan tur sifatida butunlay yo'qolib ketishiga olib kelmoqda. Shunga ko'ra, bioxilma-xillikni o'rganish, mahalliy va milliy floralar ro'yxatini shakllantirish, floralar va ular tarkibidagi kamayib borayotgan turlarni zamonaviy holatini baholash, saqlab qolish va himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda muhofazaga olingan, o'ziga xos kamyob va endem turlarga boy bo'lgan hududlarning taksonomik xilma-xilligini zamonaviy metodlar yordamida aniqlash, floradagi kamyob va endem turlarning holatini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, tabiatni muhofaza qilishning eng samarali shakli bo'lgan qo'riqxonalar ishini takomillashtirish, qo'riqlanadigan hududlar florasi va unda yo'q bo'lib ketish arafasida turgan turlarni aniqlash, floraning muhofazaga muhtojligi va bioxilma-xillik nuqtayi nazaridan o'rnini asoslash, keng ko'lamlilik taksonomik tahlil qilish va muhofaza qilish tadbirlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning floristik tarkibini aniqlash, zamonaviy usullarni qo'llash orqali biohujjatlashtirish, monitoring olib borish uchun birlamchi baza yaratish, kamyob hamda endem turlarni saqlab qolish choralari ishlab chiqishga katta e'tibor qaratildi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> "O'rmonlarni qo'riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, Tog'li o'rtaoziyo provinsiyasi Janubi-g'arbiy Hisor okrugi tarkibiga kiruvchi Qashqadaryo botanik-geografik rayonida joylashgan Hisor davlat qo'riqxonasi florasini taksonomik tahlil qilish, to'rt tizimli xaritalash asosida turlar xilma-xilligi va yig'malar zichligini aniqlash, kamyob va yo'qolib ketayotgan turlarning GAT xaritalarini yaratish O'zbekiston milliy florasidagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-son "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi PQ4247-son "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi, 2018-yil 19-dekabrda №1034-son "O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ni tayyorlash, nashr etish va yuritishni

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 1-iyundagi 484-son "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning floristik tarkibini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik olimlar N. Sasidharan (1998), J. Hunter (2015), S. Ballelli (2020), qo'riqxonalaridagi endemlarning tarqalishiga qaratilgan tadqiqotlar D. Borah (2020), L. Kupe (2020), keng ko'lamdagi tadqiqotlar H. Halilaj (2021) tomonidan olib borilgan. MDH mamlakatlaridagi qo'riqxonalarining o'simliklar qoplami, floristik tarkibi, kamyob va endem turlarning tarqalishi hamda to'r tizimli xaritalashga qaratilgan tadqiqotlarni A.N. Lavrenko va boshq., (1995), N. Nalimova (2003), G. Taran va boshq., (2004), M.V. Stolyarskaya (2004), A.P. Seregin (2010), T. Veklich va boshq., (2013), T. Veklich (2022) va boshqalarning ilmiy asarlarida ko'rish mumkin. O'zbekistonda mavjud qo'riqxonalarining florasiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini I.V. Krasovskiy, I.G. Levichev (1986), N.Y. Beshko (2000), A.J. Ibragimov (2010), A.S. Esanqulovlar (2010) olib borgan.

Hisor davlat qo'riqxonasi va unga chegaradosh bo'lgan mintaqalarda S. Lipsky, M.G. Popov, V.P. Bochansev, S. Lepeshkin, A.Y. Butkov, A.I. Vvedensky, S. Kudryashev, N. Koshurnikova, A. Pyataeva, M.V. Kultiasov, A.I. Granitov, E. Demurina, S. Mustafoev va V.A. Malaxov singari olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan va 10 mingdan ortiq gerbariylar yig'ishgan. Biroq ushbu tadqiqot ishlari Hisor davlat qo'riqxonasining florasida to'liq ma'lumotlarni, jumladan, to'liq tur tarkibini aniqlash va uning O'zbekistondagi qo'riqxonalar hamda Janubi-g'arbiy Hisor okrugidagi o'rnini belgilash imkonini bermaydi. Shu nuqtayi nazardan floraning zamonaviy konspektini tuzish, to'r tizimli xaritalash orqali keng ko'lamli tahlillarni amalga oshirish, kamyob va endem turlar tarqalishi xaritalarini tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining O'zbekiston florasini to'r tizimli xaritalash davlat dasturi va №F5-FA-0-64792 "O'zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi" mavzusidagi fundamental loyihasi (2021-2025) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Hisor davlat qo'riqxonasi florasining tur tarkibini aniqlash va turlarning tarqalishini aks ettiruvchi to'r tizimli xaritasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

floraning tur tarkibini aniqlash, konspektini tuzish va geoaxborot tizimida (GAT) turlarning tarqalishini aks ettiruvchi to'r tizimli xaritasini yaratish;  
floraning keng ko'lamli tahlilini amalga oshirish;

O‘zbekistondagi qo‘riqxonalar bilan qiyosiy tahlil qilish va Janubi-g‘arbiy Hisor okrugidagi o‘rnini baholash;

floraning endem va O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan turlarini o‘rganish va indekslar kesimida tarqalishini xaritalash.

**Tadqiqotning obyeksi sifatida** Hisor davlat qo‘riqxonasi florasining yuksak o‘simliklari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Hisor davlat qo‘riqxonasi florasini taksonomiyasi, turlarning tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritasi, geografiyasi va qiyosiy tahlili hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada floristikaning marshrutli, yarim stasionar, sistematik, areologik, biomorfologik usullari, shuningdek, to‘r tizimli xaritalash va GAT (geoaxborot tizimli) xaritalar tuzishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Hisor davlat qo‘riqxonasi florasining 71 oila, 457 turkumga mansub 1298 turdan iborat tarkibi aniqlangan, floraning konspekti tuzilib, turlarning hududda tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritalari yaratilgan hamda tadqiqot hududi uchun yangi hisoblangan 10 turdan iborat floristik topilmalar aniqlangan;

qiyosiy tahlil asosida qo‘riqxonasi florasining turlar boyligi va zichligiga ko‘ra O‘zbekistondagi boshqa qo‘riqxonalariga nisbatan ustun ekanligi ochib berilgan hamda *Astragalus*, *Cousinia*, *Allium*, *Ranunculus*, *Oxytropis*, *Gagea* singarilarning floradagi eng katta turkumlar ekanligi asoslangan;

florada Qadimiyo‘rtayerdengizi (24,26%), Pomiroloy (21,18%) areal sinflariga, gemikriptofit (50 %) biomorfasiqa mansub turlarning ustunlik qilishi aniqlangan hamda Pomir Oloy areal sinfiga mansub bo‘lgan turlarning avtohton ekanligi ochib berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan 34 ta turning, shuningdek, Qashqadaryo tipiga mansub deb topilgan 10 ta kamyob va endem turlarning floradagi yangi o‘rish populyatsiyalari va lokaliteti aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Hisor davlat qo‘riqxonasi florasida tarqalgan yuksak o‘simliklarning fotoalbomi yaratilgan;

Qo‘riqxonasi florasidagi O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga (2019) kiritilgan va endem turlarning qo‘riqxonasi hududida tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli hamda GAT xaritalari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishni bajarishda floristik tadqiqotlarning zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, olingan natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan o‘simlik turlarining gerbariy namunalari O‘rta Osiyo hududida yetakchi hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining O‘zbekiston Milliy gerbariyasi (TASH) ilmiy noyob obyeksi fondida saqlanayotgan namunalari bilan solishtirilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Hisor davlat qo‘riqxonasi florasining to‘liq konspekti tuzilganligi, keng ko‘lamli tahlili amalga oshirilganligi, hudud florasining o‘ziga xos

xususiyatlarining aniqlanganligi, O‘zbekiston florasini uchun bir qator yangi turlarning topilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo‘riqxonada hududidagi o‘simliklar dunyosini monitoringini yuritish va ularni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni yengillashtirishga xizmat qiladigan yuksak o‘simliklarning elektron formatdagi *kml*, *shape* fayllari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hisor davlat qo‘riqxonasi florasini tadqiq qilishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Hisor davlat qo‘riqxonasi florasidan yig‘ilgan 71 oila, 457 turkumga mansub 1298 turning 12000 dan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) noyob ilmiy obyektiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 28-fevraldagi 4/1255-398-son ma‘lumotnomasi). Natijada gerbariy namunalari noyob obyektning O‘rta Osiyo bo‘limi va G‘arbiy Hisor botanik-geografik okrugi o‘simliklari kolleksiyasini boyitgan hamda botany.uz ma‘lumotlar elektron bazasini boyitish imkonini bergan;

Hisor davlat qo‘riqxonasi florasini zamonaviy tarkibiga oid xulosalar, kamyob, endem va O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga (2019) kiritilgan turlarning tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari bilan mustahkamlangan ma‘lumotlar, floraning zamonaviy konspekti O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (*hozirgi vaqtdagi nomi*) Qashqadaryo viloyati boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining 2023-yil 19-apreldagi №03-01/21-418-son ma‘lumotnomasi). Natijada Hisor davlat qo‘riqxonasi florasidagi O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga (2019) kiritilgan hamda kamyob va endem turlar tarqalgan hududlarni aniqlash, davlat kadastrini yuritish va ular populyasiyalarini muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va usullari keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan,

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi, hududning tabiiy sharoiti, ishning obyekti va metodlari”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekistonda, xususan, qo'riqxonalarda olib borilgan zamonaviy floristik tadqiqotlar, Hisor davlat qo'riqxonasining tabiiy sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, tadqiqotning obyekti va metodlari keltirilgan. Tadqiqotning metodlari qismida O'zbekiston florasining to'r tizimli xaritasidan tadqiqot hududining to'r tizimli xaritasini ajratib olish asosida amalga oshirilgan ishlar ham bayon qilingan. Qo'riqxonada florasi ma'lumotlari gerbariy bazalarida mavjud tarixiy ma'lumotlar va tadqiqotchi tomonidan yig'ilgan yangi ma'lumotlar asosida to'plangan. Tarixiy ma'lumotlar 1896-yildan 2016-yilgacha 3802 gerbariy namunalari, 2017-yildan 2023-yilgacha yig'ilgan yangi gerbariy namunalari 4628 tani tashkil etadi. To'plangan barcha 8430 gerbariy ma'lumotlari tadqiqot uchun shakllantirilib ma'lumotlar bazasi yaratilgan. Hisor davlat qo'riqxonasining 5x5 km to'r tizimli xaritasi 58 ta kvadratlardan (indeks) tashkil topgan.

Flora to'g'risidagi ma'lumotlarni davrlar kesimida o'rganish natijasida, 2017-2023-yillarda ma'lumotlar ko'lamini yuqori 54,63 % (4628) bo'lganligini, bu vaqtda turlar xilma-xilligi 851 taga teng bo'lib, ushbu natija qo'riqxonada florasi ro'yxatiga kiritilgan turlarning 65,6 % ni tashkil etganligi asoslab berilgan. Indekslar kesimida “0” qiymatga ega indekslar mavjud bo'lmagan, A1198 indeksida eng yuqori natija (1203 ta) kuzatilgan. To'r tizimli xaritada tarixiy tadqiqotlar, asosan, qo'riqxonaning shimoliy va g'arbiy qismida olib borilganligini, yangi namunalarni butun hudud bo'ylab yig'ilganligini aks ettirgan. Yig'malar zichligi (*collection density*) ko'rsatkichlari bo'yicha indekslar besh guruhga ajratilgan. Bunda “0”, “1-50”, “51-100”, “101-1000” va “1001-1203” qiymatiga ega bo'lgan indekslar. Eng yaxshi natija “51-100” qiymatga ega indekslarga to'g'ri kelgan va ularda mavjud namunalarni 2017-2023-yillarga tegishli bo'lgan.

**“Hisor davlat qo'riqxonasi florasining konspekti, floristik topilmalari va taksonomik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bob 3 bo'limdan iborat bo'lib, ushbu bob flora konspektining tuzilishi, aniqlangan yangi floristik topilmalar hamda floraning taksonomik tahlili asosida olingan asosiy natijalarga bag'ishlangan.

Qo'riqxonada florasi konspekti muallifning 2017-2023-yillar mobaynida dala tadqiqotlarida yig'gan gerbariy namunalari, shu bilan birga, yirik gerbariy (TASH, LE, MW, P) fondlarida saqlanayotgan namunalarni hamda axborot resurslaridagi ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish asosida shakllantirilgan. Hududning florasini “...Konspekt...”da 71 oila, 457 turkumga mansub bo'lgan 1298 tur haqidagi ma'lumotlar jamlangan bo'lib, oilalar ketma-ketligi umumqabul qilingan APG, IV (2016) tizimi bo'yicha keltirilgan. Konspektida turlar oila va turkumlarga monand tarzda raqamlangan bo'lib, turning chop etilgan ilk nashri, ruscha, o'zbekcha nomi, hayotiy shakli, balandlik mintaqasi, tuprog'i, tarqalgan mintaqalari, xo'jalikdagi ahamiyati, kollektorlarning nomi va to'r tizimli xaritalashdagi indeks raqami keltirilgan. O'zbekiston florasini uchun yangi aniqlangan turlar (\*\*\*) yulduzcha bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga (2019) kiritilgan turlarga O'zRQK. kamyoblik darajasi deb qo'shimcha qilingan.

Aniqlangan yangi floristik topilmalar bevosita 2 guruhga: fondlarda saqlanayotgan namunalarni hamda dala tadqiqotlarida topilgan turlarga ajratilgan.

Fondlardan aniqlanilgan topilmalar. Hudud florasidan terilgan aksariyat namunalar O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH), Moskva davlat universiteti gerbariysi (MW), Rossiya Fanlar akademiyasining L.V. Komarov nomidagi Botanika instituti gerbariysi (LE) fondlarida saqlanadi. Hudud florasida ro‘yxatini shakllantirish natijasida O‘zbekiston florasida qayd etilmagan turlar aniqlangan. Bular TASH fondidan Lamiaceae (*Phlomis baldschuanica* (Regel) Adylov, Kamelin & Makhm.), Asteraceae (*Artemisia lipskyi* Poljokov), MW fondidan Asteraceae (*Psychrogeton andryaloides* (DC.) Novopokr. ex Krasch.), Euphorbiaceae (*Euphorbia tibetica* Boiss.), Linaceae (*Linum pallescens* Bunge), Plantaginaceae (*Linaria hepatica* Bunge), Poaceae (*Stipa badachschanica* Roshev) aniqlangan. Olib borilgan dala tadqiqotlarida Fabaceae (*Astragalus caulescens* (Gontsch.) Abdusal.), Asteraceae (*Tragopogon dubius* Scop., *Arctium fedtschenkoanum* (Bornm.) S.López, Romasch., Susanna & N.Garcia.) kabi turlar aniqlangan. Qo‘riqxonada florasida gerbariy fondlaridan 7 tur hamda dala tadqiqotlarida 3 tur aniqlangan bo‘lib, bu turlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoritilgan.

Navbatdagi bo‘lim floraning taksonomik tahliliga bag‘ishlangan. Olib borilgan dala tadqiqotlaridan yig‘ilgan materiallar, gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalar asosida ilk bor, Hisor davlat qo‘riqxonasi florasining tur tarkibiga aniqlik kiritildi, bunga ko‘ra, hudud florasida yuksak o‘simliklarning 71 oila, 457 turkumga mansub 1298 turdan iborat ekanligi aniqlandi. Har bir aniqlangan tur gerbariy namunasi bilan tasdiqlangan, 2017-2023-yillar davomida olib borilgan dala tadqiqotlarida 8430 dan ortiq gerbariy namunalari yig‘ilgan va TASH fondiga topshirilgan. Hudud florasining boyligi O‘zbekistondagi ayrim mahalliy hududlar–Surxon-Sherobod botanik-geografik rayoni (802), Urgut botanik-geografik rayoni (1281) hamda ayrim qo‘riqxonalar–Surxon davlat qo‘riqxonasi (747), Zomin davlat qo‘riqxonasi (1192), Nurota davlat qo‘riqxonasi (815) floralardan kam emasligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, hudud florasining turlarga boyligi maydoniga nisbatan ham ancha yuqori. Qo‘riqxonada umumiy maydoni 81000 gektar / 1298 tur, 1 gektar maydonga 62 tur to‘g‘ri kelgan. Bu ko‘rsatkich, Surxon davlat qo‘riqxonasida 1 gektar maydonga 31 tur (23802/747), Zomin davlat qo‘riqxonasida 22 tur (26840/1192), Nurota qo‘riqxonasida 21 tur (17752/815) hamda Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasida 21 turni (24 706/1168) takshil etadi. Floraning taksonomik tarkibiga ko‘ra, Sporal o‘simliklar (Lycophytes) Equisetaceae, Polypodiaceae oilalari 4 turkumga mansub 5 turi, Ochiq urug‘lilardan (Pinidae) Cupressaceae hamda (Gnetidae) Ephedraceae oilalarining 2 turkumga mansub 6 tur tarqalganligi aniqlangan. Bulardan *Juniperus* (*J. polycarpos* var. *seravschanica* (Kom.) Kitam.) o‘simliklar qoplamida asosiy o‘rinni egallaydi va archazor jamoasini hosil qiladi. Turlar soni bo‘yicha *Ephedra* (5 tur) yetakchilik qiladi. Umumiy, Sporal hamda Ochiq urug‘lilar 4 oila, 6 turkumga mansub 11 turi ro‘yxatga olingan va floraning 0,84 % ga to‘g‘ri kelgan.

Floraning asosiy qismi 1287 tur bilan yuksak gulli o‘simliklar tashkil etadi. Bulardan bir urug‘pallalilar (Monocotyledones) 12 oila, 72 turkumga mansub 218 tur, ikki urug‘pallalilar (Dicotyledones) 55 oila, 379 turkumga mansub 1069 turdan iborat. Bir urug‘pallali va ikki urug‘pallalilarning umumiy nisbati 1:4,90 teng. Hudud florasida bitta oilaga 6,43 turkum va 18,28 tur to‘g‘ri kelgan (1:6,43:18,28). Bu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekistondagi ayrim mahalliy floralar Qizilqumoldi

qoldiq tog‘lari 1:5,17:11,31 (Batoshov, 2016), Boysun botanik geografik rayoni florasida 1:5,88:17,57 (Turginov, 2017), Molguzar florasida 1:5,53:14,94 (Azimova, 2018), Zarafshonning g‘arbiy tarmoqlarida (1:5,33:14,39 (Qodirov, 2021) qo‘riqxonalar Surxon davlat qo‘riqxonasi 1:4,83:9,70 (Ibragimov, 2010) Zomin davlat qo‘riqxonasida 1:4,88:11,57 (Esanqulov, 2012), Nurota davlat qo‘riqxonasida 1:4,62:10,86 (Beshko, 1999) hamda Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasida 1:4,19:17,17 (Krasovskaya, Levichev, 1986) yuqori ekanligi ma‘lum bo‘lgan. Bu esa hududning bevosita joylashgan o‘rni hamda ekologik muhitiga bog‘liq. Hududning shimoliy qismi nisbatan qurg‘oqchil, olajinsli yonbag‘irliklarning ko‘pligi, janub qismida esa (Tojikiston tomon) namgarchiligi yuqori archazor, shiblyak florosentipi va qoya toshli yonbag‘irliklarning ko‘pligi bilan izohlanadi.

Polimorf oilalar qatorini aniqlashda mahalliy floralar bo‘yicha amalga oshirilgan floristik tadqiqotlar (Tojibaev, 2010; Silentaeva, 2012; Batoshov, 2016; Turginov, 2017; Qodirov, 2020) kabi florani asosini tashkil etadigan (70 % yuqori bo‘lgan) oilalar tanlandi. Hisor davlat qo‘riqxonasida polimorf oilalar qatoriga 25 tadan ortiq turga ega bo‘lgan 13 oila olingan va bu oilalarda 325 turkumga mansub 963 tur, jamlangan. Yetakchilardagi turlar umumiy florani 74,19 % tashkil etadi (1-jadval). Bu ko‘rsatkich ayrim mahalliy floralar (Batoshov, 2016; Turginov, 2017; Qodirov, 2021; Abduraimov, 2022) va qo‘riqxonalardan (Karmesheva, 1973; Krasovskaya, Levichev 1986; Ibragimov, 2010; Esanqulov, 2012) ancha yuqori ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Yetakchi oilalar qatorini Asteraceae (215 tur – 22,32 %), Fabaceae (168-17,44 %), Poaceae (108-11,21 %), Lamiaceae (75-7,78 %), Apiaceae (74-7,68 %), Brassicaceae (65-6,74 %), Ranunculaceae (49-5,08 %), Caryophyllaceae (51-5,29 %) va boshqalar tashkil qiladi. Bu ketma-ketlik Tog‘li O‘rtaosiyo provinsiyasiga xos bo‘lgan belgilardan biri hisoblanadi (Xoxryakov, 2000; Tojibayev, 2010).

1-jadval

**Hisor davlat qo‘riqxonasi florasining polimorf oilalar va ulardagi turkum, turlar hamda namunalar soni (%)**

Oila	Turkumlar soni	Turlar soni	% PO	Namuna soni	% PO
Asteraceae	70	215	22,32	1524	24,1
Fabaceae	22	168	17,44	1678	26,5
Poaceae	43	108	11,21	374	5,9
Lamiaceae	23	75	7,78	668	10,6
Apiaceae	38	74	7,68	548	8,6
Brassicaceae	41	65	6,74	266	4,2
Caryophyllaceae	20	51	5,29	264	4,2
Ranunculaceae	16	49	5,08	260	4,1
Rosaceae	13	47	4,88	283	4,6
Boraginaceae	19	34	3,53	162	2,6
Amaryllidaceae	2	27	2,80	104	1,6
Cyperaceae	9	25	2,59	69	1,1
Polygonaceae	9	25	2,59	122	1,9
<b>Jami: 13 ta</b>	<b>325</b>	<b>963</b>	<b>100/74,19</b>	<b>6322</b>	<b>100/75</b>
<b>Qolgan oila: 58</b>	<b>132</b>	<b>335</b>	<b>25,8</b>	<b>2108</b>	<b>25</b>
<b>Jami: 71</b>	<b>457</b>	<b>1298</b>	<b>100</b>	<b>8430</b>	<b>100</b>

Hudud florasida oilalarning yetakchilik qilishi, jumladan, Asteraceae oilasidan *Jurinea* (9/0,69 %), *Taraxacum* (12/0,92 %), *Artemisia* (16/1,23 %) hamda *Cousina* (34/2,61 %), Fabaceae oilasidan *Oxytropis* (16/1,23 %), *Astragalus* (82/6,31 %), Lamiaceae oilasidan *Phlomis* (10/0,77 %), *Salvia* (11/0,84 %) turkumlari, Ranunculaceae oilasidan *Ranunculus* (22/1,69 %), Poaceae oilasidan *Bromus* (10/0,77 %) va *Poa* (11/0,84 %) turkumlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur oila turlarining asosiy qismi Pomir-Oloyning avtohton turlariga to‘g‘ri keladi.

Qo‘riqxonada florasidagi 1298 turga mansub 8430 ortiq gerbariy namunalarining asosida turlar boyligi (*species richness*) va gerbariy namunalar soni (*collection density*) bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi. Shular qatorida polimorf oilalarning ham tahlili alohida keltirildi. Unga ko‘ra, polimorf oilalarning indekslar kesimida o‘rtacha turlar xilma-xilligi 35 turga, yig‘malar zichligi 109 namunaga teng. Qo‘riqxonada florasining to‘r tizimli xaritasida mavjud 58 ta indeksning 17 tasida umumiy turlarga nisbatan polimorf oila turlarining ulushi yuqori bo‘lsa, namunalar soniga ko‘ra, aksincha, faqat 1 ta indeksda umumiy namunalar polimorf oilalar namunalaridan ustunlik qilgan. Polimorf oilalarning vakillari quyidagi indekslarda AI198, AL198, AK198, AQ205, AH198, AK200, AK199, AN199, AJ200, AL203 nisbatan kengroq tarqalganligi olib borilgan tahlillar natijasida ma‘lum bo‘ldi. Shu bilan birga, har bir yetakchi oilaning indekslardagi turlar boyligi va yig‘malar zichligi aniqlangan.

Qo‘riqxonada florasida 457 turkum ro‘yxatga olingan bo‘lib, bir turkumga 2,84 tur to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Surxon (372) (2) va Zomin (395) (2,40) qo‘riqxonalariga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega. Florada bittadan turga ega bo‘lgan turkumlar soni 234 tani tashkil etadi, bu umumiy turkumlarning 51,20 % ini tashkil etadi. Florada polimorf turkumlar qatoriga 11 tadan ortiq turga ega bo‘lgan 13 turkumlar olingan va ularda 288 tur jamlangan. Yetakchi turkumlardagi tur va namunalar soni hamda ularning foiz ko‘rsatkichlari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

### Yetakchi turkumlarning spektri

Turkumlar	Turlar soni	PT%	Namuna soni	% PO
<i>Astragalus</i> L.	82	28,47	949	39,53
<i>Cousina</i> Cass.	34	11,80	283	11,79
<i>Allium</i> L.	26	9,02	102	4,24
<i>Ranunculus</i> L.	22	7,63	129	5,37
<i>Euphorbia</i> L.	18	6,25	104	4,33
<i>Oxytropis</i> DC.	16	5,55	137	5,70
<i>Artemisia</i> L.	16	5,55	177	7,37
<i>Gagea</i> Salisb.	14	4,86	23	0,95
<i>Potentilla</i> L.	13	4,51	123	5,12
<i>Carex</i> L.	12	4,16	52	2,16
<i>Silene</i> L.	12	4,16	104	4,33
<i>Taraxacum</i> F. H. Wigg.	12	4,16	127	5,28
<i>Ferula</i> L.	11	3,81	91	3,79
<b>Jami: 13 ta</b>	<b>288</b>	<b>100/22,98</b>	<b>2401</b>	<b>100/28,48</b>
<b>Qolgan turkumlar: 444</b>	<b>1010</b>	<b>77,81</b>	<b>6029</b>	<b>71,51</b>
<b>Jam: 457</b>	<b>1298</b>	<b>100</b>	<b>8430</b>	<b>100</b>

Florada, asosan, oligopolimorf hisoblangan *Astragalus* (82-6,31 %), *Cousinia* (46-2,61 %), *Allium* (26-2 %), *Ranunculus* (22-1,69 %) hamda *Euphorbia* (18-1,38 %) turkumlari Tog'lio'rtaosiyodagi mahalliy floralar singari mintaqa florasida ham yuqori o'rinlarda turadi. Hudud florasida *Astragalus* turkumi nisbatan ko'pligi turkumning Pomir-Oloyning avtohton turlariga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich qo'shni Boysun botanik-georafik rayoni florasida ham keltirilgan (Turginov, 2017). Turkum turlari to'r tizimli xaritada (AH198, AO201, AN200, AI198, AN199, AL201, AQ205, AK200, AP204, AM200, AO202, AK198, AL200) indekslarda nisbatan kengroq tarqalgan.

Keyingi o'rinda 34 tur bilan *Cousinia*, *Astragalus* turkumi singari tarqalgan turlarning asosiy qismi Pomir-Oloyning avtohton turlariga to'g'ri keladi. Hududning to'r tizimli xaritasida (AH198, AO201, AN200, AI198, AN199, AL201, AQ205, AK200, AP204, AM200, AO202, AK198, AL200, AM199, AL199, AQ203) indekslarida tarqalgan. Qolgan turkumlar *Allium* (26-2 %), *Ranunculus* (22-1,69 %), *Euphorbia* (18-1,38 %) *Artemisia*, *Oxytropis* (16/1,23 %), *Gagea* (14/1,07 %), *Potentilla* (13/1 %) nisbatan turlarga boyligi aniqlangan.

Taksonomik tahlil natijasiga ko'ra, polimorf oilalar ketma-ketligining birinchi uchligi Asteraceae (*As-Fa-Po*) deyarli o'zgarishsiz, ikkinchi uchlikda (*La-Ap-Br*) (Xoxryakov, 2000) Lamiaceae (*Scutellaria*, *Nepeta*, *Phlomis*) va Apiaceae (*Ferula*, *Elaeosticta*) kabi oilalari yuqori o'rindan joy olgan. Bu Tog'lio'rtaosiy uchun xos xususiyat hisoblanib, avtohton turlarning ko'pligi orqali namoyon bo'lgan. Brassicaceae oilasining (*Alyssum*, *Strigosella*, *Lepidium*) yuqori o'rinni egallashi esa asosan farqli xususiyat sifatida ko'rsatilgan. Polimorf oilalar turlar soni bo'yicha boshqa o'rganilgan qo'riqxonalariga nisbatan son jihatdan yetakchilik qilishi ma'lum bo'lgan. Shuningdek, indekslar kesimida ham yetakchi oila vakillari **turlar boyligi** va **yig'malar zichligi** bilan ustunlik qilishi aniqlangan.

Turkumlar ketma-ketligi *Astragalus* L., *Cousinia* Cass., *Allium* L., *Ranunculus* L., *Euphorbia* L., *Oxytropis* DC., *Artemisia* L., *Gagea* Salisb. holatda bo'lib, asosan avtohton turlarga to'g'ri kelishi bilan ifodalangan. Ularning taksonomik tarkibini o'rganish natijalari tadqiqot hududi mazkur turkumlar doirasida zamonaviy tur hosil bo'lish markazlaridan biri ekanligini e'tirof etish imkonini bergan. Bu holat to'r tarqalish doirasiga ega bo'lgan endem, subendem turlarning keng tarqalganligi hamda xilma-xilligi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning "**Hisor davlat qo'riqxonasi florasining keng ko'lamli tahlili**" deb nomlangan uchinchi bobida floradagi turlarning areal tiplari bo'yicha taqsimlanishini o'rganish hamda biomorfologik tahlil qilish asosida olingan asosiy natijalar keltirilgan.

Birinchi bo'limda turlarning areal tiplari bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan. Floraning geografik spektri O'rta Osiyo floralari bo'yicha chop etilgan klassik (Kamelin, 1971; Karmesheva, 1982; Krasovskaya, Levichev, 1986) hamda so'nggi yillardagi amalga oshirilgan floristik (Beshko, 2000; Ibragimov, 2010; Tojibaev, 2010; Batoshov, 2016) tadqiqotlardan foydalanilgan holda amalga oshirilgan (3-jadval).

## Hisor davlat qo'riqxonasi florasining geografik spektri

Areal sinflar	Areal tiplar soni	Turlar soni	%
Pomiroloy sinfi	8	275	21,18
Tog'lio'rtaosiyo sinfi	3	207	15,94
O'rtaosiyo sinfi	7	203	15,63
Qadimiyo'rtayerdengizi sinfi	7	315	24,26
Palearktik sinfi	10	202	15,56
Golarktik sinfi	1	64	4,93
Plyuriregional sinfi	1	32	2,46
<b>Jami:</b>	<b>37</b>	<b>1298</b>	<b>100</b>

Flora tarkibi 7 areal sinflariga mansub 37 areal tiplaridan iborat ekanligi aniqlangan. Turlar soni bo'yicha Qadimiyo'rtayerdengizi (315), undan so'ng Pomir-Oloy (275), Tog'lio'rtaosiyo (207), O'rta Osiyo (203), Palearktik (202), Goloarktik (64) va Plyuriregional (32) areal sinflari turadi. Hudud florasida Tog'lio'rtaosiyoga xos bo'lgan turlar (Pomiroloy va Tog'lio'rtaosiyo) umumiy turlarning  $\frac{1}{3}$  (37,12 %) qismini tashkil etsa, Qadimiyo'rtayer areal sinfiga mansub turlar  $\frac{1}{4}$  (24,26 %) qismini tashkil etadi.

Pomiroloy hamda Tog'lio'rtaosiyo sinfiga mansub turlar Asteraceae, Fabaceae, Lamiaceae, Apiaceae, Rosaceae oilalarining *Jurinea*, *Cousinia*, *Astragalus*, *Allium*, *Scutellaria*, *Phlomoides*, *Acantholimon* singari turkumlariga to'g'ri kelsa, Qadimiyo'rtaer areal sinfiga mansub turlar Asteraceae (*Artemisia*, *Inula*), Brassicaceae (*Strigosella*, *Alyssum*), Boraginaceae (*Heliotropium*), Papaveraceae (*Papaver*, *Roemeria*), Fabaceae (*Astragalus*, *Vicia*), Euphobiaceae (*Euphorbia*), Cyperaceae (*Carex*), Poaceae (*Stipa*, *Bromus*, *Hordeum*) oilalariga to'g'ri keladi. O'rtaosiyo, Palearktik, Golarktik va Plyuriregional sinflariga mansub turlar nisbatan keng tarqalish arealiga ega bo'lgan turlar hisoblanadi. Bu kabi turlarni deyarli barcha oila vakillari orasida uchratish mumkin.

Turlarning areal tiplari bo'yicha taqsimlanishining tahliliga ko'ra, Pomir Oloy areal sinfiga mansub bo'lgan turlar Pomir Oloyning avtohton turlari, Qadimiyo'rtayerdengizi areal sinfiga mansub turlar tekislik va adir mintaqalarida keng tarqalgan turlardan iborat ekanligi aniqlandi. Qolgan sinflardagi turlar keng tarqalish arealiga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi bo'lim floraning hayotiy shakllar tahliliga bag'ishlangan. Florada aniqlangan turlarning hayotiy shakllari bo'yicha spektri S. Raunkiaer (1934) tasnifi asosida amalga oshirilgan.

Qo'riqxonada florasida gemikriptofit (656 tur), terofitlar (389 tur), kriptofit (109 tur), fanerofit (79 tur) va xamefitlarga (65 tur) nisbatan ko'proq. Floraning biomorfologik tahlili bevosita to'r tizimli xaritalardagi turlar xilma-xilligi va yig'malar zichligi bilan birga amalga oshirilgan. Florada turlar soni bo'yicha gemikriptofitlar ustunlik qiladi. Florada gemikriptofitlar to'r tizimli xaritada barcha 58 ta indekslardan (100 %) tarqalgan. Indeksardagi turlar xilma-xilligi (*species richness*) 3 tadan 292 tagacha (1-A. rasm), yig'malar zichligi 7 tadan 667 tagacha (1-B. rasm). Gemikriptofitlar deyarli barcha oila vakillarida mavjud.



Hudud florasida terofitlar 389 turdan iborat. Asosan, Boraginaceae, Caryophyllaceae, Fabaceae, Poaceae, Brassicaceae, Asteraceae vakillariga to'g'ri keladi. Mazkur turlar 57 ta indekslarda (98 %) uchraydi. Terofitlarning turlar xilma-xilligi 1 tadan 23 tagacha, yig'malar zichligi esa 1 tadan 261 tagacha.

Kriptofitlarning 109 turi tarqalgan bo'lib, bularning 650 gerbariy namunasi aniqlangan.

Kriptofit turlarning asosiy qismini *Monocotyledones* ajdodiga mansub Orchidaceae, Asphodelaceae, Iridaceae, Liliaceae, Amaryllidaceae va *Dicotyledones* ajdodidan Apiaceae, Papaveraceae, Berberidaceae, Ranunculaceae, Berberidaceae kabi oila vakillariga to'g'ri keladi. Qo'riqxonada florasining to'r tizimli xaritasida 54 ta indekslarida (93 %) uchraydi. Ular tarqalgan indekslarda turlar boyligi 1 tadan 31 tagacha, yig'malar zichligi 1 tadan 59 tagacha.


Florada fanerofitlar 79 turni tashkil etadi, ularni 614 ta gerbariy namunasi mavjud. To'r tizimli xaritada 50 ta indeksida (86 %) uchraydi. Turlar xilma-xilligi 1 tadan 29 tagacha, yig'malar zichligi 1 tadan 103 tagacha. Floradagi fanerofitlar Salicaceae (2/8), Fabaceae (3/12), Rosaceae (6/24) oilalari, *Astragalus* (10), *Rosa* (9), *Prunus* (6), *Ephedra* (5) *Lonicera* (5), *Populus* (3), *Cotoneaster* (4), *Ephedra* (3), *Salix* (5) turkumlariga to'g'ri keldi. Mazkur turlar hududning suv muhiti bilan bog'liqligi, ya'ni soylar, daryolarning bo'ylarida shu bilan birga tog'li mintaqadagi shiblyak va archazor florosenotiplarning asosini tashkil etadi.

Florada xamefitlar ulushi kam bo'lib, 65 turning 584 namunasidan iborat. Floradagi xamefitlarning barchasining tarqalishi Tog'lio'rtaosiy provinsiyasi bilan chegaralangan, *Acantholimon*, *Astragalus*, *Artemisia*, *Scutellaria* turkumlarining turlariga to'g'ri keldi va bu turlar qo'riqxonada florasining baland tog'li mintaqasidagi o'simlik jamoasining asosini tashkil etadi. To'r tizimli xaritada 50 ta (86 %) indeksdan joy olgan. Indekslarda turlar xilma-xilligi 1 tadan 30 tagacha, yig'malar zichligi 1 tadan 113 tagacha.

Qo'riqxonada florasining biomorfologik tahlil natijalariga ko'ra, florada tarqalgan gemikriptofit turlar ko'pligi, butun tog'li O'rta Osiyodagi tog'li floraga mansubligini ko'rsatadi. Terofitlar, gemikriptofitlardan keyin bo'lib, asosiy turlar Golarktik, Polearktik hamda Qadimiyo'rtayerdengiziga xos bo'lib, tekislikdan yuqori tog'li mintaqasigacha tarqalishga ega. Florada fanerofitlar o'simlik jamoalarining asosiy qismini tashkil etishi bilan birga, boshqa qo'riqxonada va mahalliy floralarga nisbatan turlar soni jihatidan ko'proq, bu holat hududning joylashgan (suv muhiti bilan bog'liqligi, ya'ni soy va daryolarning ko'pligi) o'rniga bog'liq, shu bilan birga aksariyat qismi Tog'lio'rtaosiyodan tashqariga chiqmaydigan turlarga to'g'ri keladi. Floradagi xamefitlar barchasining tarqalishi Tog'lio'rtaosiy provinsiyasi bilan chegaralangan bo'lib, asosiy qismini *Acantholimon*, *Astragalus*, *Artemisia*, *Scutellaria*, turkumlarining turlariga to'g'ri keldi va bu turlar qo'riqxonada florasining baland tog'li mintaqasidagi o'simlik jamoasining asosini tashkil etadi. Kriptofitlar O'rta Osiyodagi boshqa mintaqalar singari o'ziga xoslikka ega, lekin hududning qo'riqlanayotganligi hamda aholi yashaydigan makonlardan uzoqda joylashganligi uchun manzarali turlarning genofondi yaxshi saqlangan.

Dissertatsiyaning “Hisor davlat qo‘riqxonasi florasining endem va kamyob turlari” deb nomlangan to‘rtinchi bobi floraning endemizm fraksiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga (2019) kiritilgan turlarga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi bo‘limi hudud florasining endem turlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Qo‘riqxonada endemlaridan ayrimlarning hozirga qadar faqatgina tip namunalari bilan cheklangan (*Rochelia jackabaghi* (Lipsky) Pavlov ex Pavlov, *Astragalus ambigens* Popov, *A. tanchasii* Gontsch, *Euphorbia kudrjashevii* (Pazij) Prokh., *Cicer incanum* Korotkova). Olib borilgan dala tadqiqotlarida shu kabi turlardan (*C. incanum*, *Cousinia praestans* Tschern. & Vved., *Tanacetopsis botschantzevii* (Kovalevsk.) Kovalevsk.) yangi gerbariy namunalari terildi. Endemning taksonmik tarkibiga ko‘ra, Asteraceae, Apiaceae, Boraginaceae, Ranunculaceae, Euphorbiaceae, Plumbaginaceae kabi oilalarda bittadan tur, Fabaceae oilasidan 5 tur endem maqomiga ega. Mazkur turlarni taksonomiyasi, to‘r tizimdagi tarqalgan indeksi, fotorasmlari va tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari yaratilgan (2-rasm).



2-rasm. Qo‘riqxonada endemlarning tarqalishi

Mazkur mintaqada dengiz sathidan 2000 metr balandlikda joylashganligi, borish yo‘llari uzoqligi va o‘ziga xos flora ega ekanligi inobatga olgan holda, hududda yana yangi turlar borligi ehtimoldan xoli emas.

## XULOSALAR

“Hisor davlat qo‘riqxonasi florasi” mavzusidagi dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor Hisor davlat qo‘riqxonasi florasi tarkibiga tahlil qilinib aniqlik kiritilgan. Bunga ko‘ra, flora tarkibi 71 oila, 457 turkumga mansub bo‘lgan 1298 turdan iborat ekanligi aniqlangan. Dala tadqiqotlari hamda fondlarda saqlanayotgan namunalar asosida O‘zbekiston florasi uchun yangi bo‘lgan 10 tur aniqlangan va tavsiflangan.

2. Floraning taksonomik tarkibiga ko‘ra, sporali va ochiq urug‘li o‘simliklarning son jihatdan kamligi ma‘lum bo‘ldi, lekin ochiq urug‘lilar o‘simliklar qoplamida asosiy o‘rinni egallaydi va archazor jamoasini hosil qiladi. Floraning asosiy qismi 1287 tur bilan gulli o‘simliklarni tashkil etdi. Bular bir urug‘pallalilar (Monocotyledones) 12 oila, 72 turkum 218 tur, ikki urug‘pallalilar (Dicotylédones) 55 oila, 385 turkumga mansub 1069 turdan iborat ekanligi aniqlandi.

3. Hudud florasida O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan 13 oila, 20 turkumga mansub 34 tur tarqalganligi aniqlanib, ularning indekslar hamda bo‘limlar kesimida tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari ishlab chiqildi.

4. Mintaqada tarqalgan kamyob va endem bo‘lgan *Astragalus komarovii* Lipsky, *Cicer incanum* Korotkova, *Pedicularis grandis* Popov, *Cousinia praestans* Tschern. & Vved., *Tanacetopsis botschantzevii* (Kovalevsk.) Kovalevsk kabi turlarning yangi o‘sinh maydonlari topildi va xaritalandi. Bu kabi kamyob va endem turlarning keng tarqalganligi hududda endemizmning yuqoriligi bilan izohlandi.

5. Qo‘riqxonalar florasini O‘zbekistondagi florasi o‘rganilgan boshqa qo‘riqxonalar florasini bilan taqqoslanganda biologik xilma-xilligining, jumladan, floraning boyligi va turlar zichligining yuqori ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

6. Hudud florasini Janubi-g‘arbiy Hisordagi o‘ziga xos hududlardan bo‘lib, florada *Astragalus*, *Cousinia*, *Allium*, *Ranunculus*, *Oxytropis*, *Gagea* singari turkumlarning xilma-xilligi yuqoriligi Pomir-Oloyning avtohton turlari ekanligi bilan izohlanadi. Ularning taksonomik tarkibini o‘rganish tadqiqot hududi mazkur turkumlar doirasida zamonaviy tur hosil bo‘lish markazlaridan biri ekanligini e‘tirof etish imkoniyatini berdi.

7. Hisor davlat qo‘riqxonasidan har biri 5x5 km maydonni tashkil qilgan to‘r tizimli xaritasi ishlab chiqildi, unga ko‘ra hudud 58 ta indekslarga ajratildi va yuksak o‘simliklar kadastrini yuritish uchun har bir turning GPS koordinatalari bilan geobog‘langan elektron (*kml*, *shape*) platformasi yaratildi.

8. Qo‘riqxonalar florasidagi 1298 turga mansub 8430 dan ortiq gerbariy namunalari asosida turlar boyligi (*species richness*) va gerbariy namunalar soni (*collection density*) bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi. O‘rtacha har bir indeksdagi turlar xilma-xilligi 89 turga, yig‘malar zichligi 145 teng ekanligi aniqlandi.

9. O‘zbekistondagi qo‘riqxonalar orasida ilk marotaba Hisor davlat qo‘riqxonasi florasida tarqalgan yuksak o‘simliklarning fotoalbomi yaratildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.В.70.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**АРОМОВ ТОЛМАС БАХТИЁРОВИЧ**

**ФЛОРА ГИССАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ЗАПОВЕДНИКА**

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2022.2.PhD/B718.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

Научный руководитель:

Тургинов Орзимат Турдиматович  
доктор философии (PhD), старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Ёзиев Лутфулло Хабибуллаевич  
доктор биологических наук, профессор

Эсанов Хусниддин Курбонович  
доктор биологических наук

Ведущая организация:

Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «28» декабрь 2023 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.B.70.03 при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, Карши, улица Кучабог, 17. Тел: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Каршинский государственный университет Главный корпус (аудитория №205).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрировано под №213). (Адрес: 180103, Карши, улица Кучабог, 17. Тел: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «16» декабрь 2023 г.  
(реестр протокола рассылки № 9 от «16» декабрь 2023 г.).



Ш.К. Курбонов  
Председатель Научного совета по присуждению учёной степени,  
доктор биологических наук, профессор

Ш.А. Саматова  
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёной степени,  
кандидат биологических наук, доцент

Л.Х. Ёзиев  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёной степени,  
доктор биологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** На сегодняшний день рост населения, повышение технического и энергетического уровня человечества, процесс глобализации оказывают негативное воздействие на экосистемы. Особенно, нерациональное использование растительных ресурсов наносит серьезный ущерб биологическому разнообразию, естественному состоянию ландшафтов и биогеоценозов, приводит к полному исчезновению того или иного растения из природы как отдельного вида. Соответственно, изучение биоразнообразия, формирование перечня местной и национальной флоры, оценка современного состояния исчезающих видов в них, разработка мер по их сохранению имеет научное и практическое значение.

В нашей республике большое внимание уделялось определению флористического состава охраняемых природных территорий, биодокументированию современными методами, созданию первичной базы для проведения мониторинга, разработке мероприятий по сохранению редких и эндемичных видов. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по «коренному пересмотру механизма охраны и защиты лесов»<sup>1</sup>. На основании этих задач, в частности, проведение таксономического анализа флоры Гиссарского государственного заповедника, расположенного в Кашкадарьинской ботанико-географической области, входящей в состав Юго-Западного Гиссарского района Горно-Среднеазиатской провинции, определение видового разнообразия и плотности коллекций на основе сеточной системы картографирования, создание ГИС-карт редких и исчезающих видов, выявление уникальных особенностей национальной флоры Узбекистана имеют большое научное и практическое значение.

